

MA'NAVIYATLI YOSHLARNI TARBIYALASHDA O'RTA OSIYO ALLOMALARINING ILMIY MEROSLARINING O'RNI

Nasibjonov Nurillo Nasibjono'g'li

.Fargona Davlat Universiteti

Harbiy Talim Fakulteti

Annotatsiya: *Mustaqillik tufayli o'rganish, tahlil etish imkoniyatiga ega bo'lgach, ona zaminimiz ma'naviy merosini chuqurroq o'rganish biz yoshlarning vazifamiz, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi unda Markaziy Osiyodan etishib chiqqan mutafakkirlar al-Xorazmiy, al-Farg'oni, al-Farobiy, Ibn Sino, al-Beruniy kabi mutafakkirlarxam kata ro'l o'ynaydi*

Kalit so'zlar: *yuksak, ma'naviyat, yoshlar, tarbiya, O'rta Osiyo, alloma, ilmiy, meros.*

IX-XV asrlarni Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida shartli ravishda «Renessans» (uyg'onish) davri deb atashadi. Ma'naviyat va ma'rifatning g'oyat gullab-yashnashi bu davr uchun xarakterli bo'lgan. Bu davrda qomusiy ilm egalari, ajoyib shoirlar, buyuk davlat arboblari etishib chiqqan. Dunyoviy fanlarning tez sur'atlarda taraqqiy etishi keng tarjimonlik faoliyatiga ta'sir etdi. Bu jarayon, ayniqsa halifa Ma'mun davrida (813-133 yy.) Bag'dodda «Bayt-ul-hikma» (Donolar uyi) tashkil etilgan paytda tezlashdi. Yunon falsafasi va tabobati, hind hisobi, al-ximiya va ilmu nujumga oid asarlar arab tiliga o'girildi. Bunda Markaziy Osiyodan etishib chiqqan mutafakkirlar al-Xorazmiy, al-Farg'oni, al-Farobiy, Ibn Sino, al-Beruniy kabi mutafakkirlar ham katta rol o'ynadilar.

Renessans – uyg'onish davri madaniyati, ma'naviyati va ma'rifati mohiyat-e'tibori bilan dunyoviy, gumanistik dunyoqarashi, antik davr madaniy merosiga murojaat qilish, bamisoli uning qayta uyg'onishni anglatadi. Uyg'onish davri namoyondalari qarashlari insonning cheksiz imkoniyatlariga, uning irodasiga, aql-idrokiga ishonib qarashi bilan ajralib turadi.

Xorazmiy (780-850 yy.) Sharqning buyuk mutafakkiri, qomusiy olimdir. Uning ilmu-nujum, geodeziya, geografiya va ayniqsa riyoziyot sohasidagi xizmatlari beqiyosdir. U arab, hind, lotin, yunon, fors tillarini bilgan.

Xorazmiy bir qancha kitob va risolalarning muallifidir. Bulardan eng mashhuri «Kitob al-jabr va al-muqobala» asaridir. Bu asar riyoziyotda yangi mustaqil fan – algebraning vujudga kelishiga zamin bo'ldi. U tenglamalarni echishning ikki usulini – al-jabr, ya'ni qarama-qarshi ishoralarni yagona musbat ishoraga keltirish va al-muqobala, ya'ni bir hil hadlarni qarama-qarshi qo'yishni kashf qildi.

Xorazmiy «Sind Hind», «Ziji Xorazmiy», «Astrolyabiya bo'yicha risola», «Quyosh soati haqida risola», «Erning shakli haqida kitob», «Trigonometrik jadvallar», «Musika bo'yicha risola», «Tarix haqida» va boshqa asarlarning muallifi. Uning buyuk xizmatlaridan biri Evropa va Yaqin Sharq ilmini qadimgi hindlarning o'nlik tizimi bilan tanishtirish bo'ldi. Uni Evropada «Algaritmus» deb yuritganlar.

Al-Xorazmiy (780-850 yy.) Sharqning buyuk mutafakkiri, qomusiy olimdir. Uning ilmunu-jum, geodeziya, geografiya va ayniqsa riyoziyot sohasidagi xizmatlari beqiyosdir. U arab, hind, lotin, yunon, fors tillarini bilgan. Xorazmiy bir qancha kitob va risolalarning muallifidir. Bulardan eng mashhuri "Kitob al-jabr va al-muqobala" asaridir. Bu asar riyoziyotda yangi mustaqil fan -algebraning vujudga kelishiga zamin bo'ldi. U tenglamalarni echishning ikki usulini - al-jabr, ya'ni qarama-qarshi ishoralarni yagona musbat ishoraga keltirish va al-muqobala, ya'ni bir hil hadlarni qarama-qarshi qo'yishni kashf qildi.

ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.: Sharq. 1998-yil
2. N.A. Jumayeva. O'rta Osiyo allomalarining ilmiy me'rosi. Uslubiy qo'llanma. Buxoro, "Durdona" nashriyoti. 2013.